

**SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDA CHUQUR IZ QOLDIRGAN
O'ZBEKISTON XALQ XOFIZI FATTOKHON MAMADALIEVNING
HAYOTI VA IJODIY YO'LI**

**ЖИЗНЕННЫЙ И ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ НАРОДНОГО
ДЕЯТЕЛЯ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА ФАТТОХО
МАМАДАЛИЕВА, ОСТАВШЕГО ГЛУБОКИЙ СЛЕД В ОБЛАСТИ
ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ
THE LIFE AND CREATIVE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV,
THE PEOPLE'S CULTURAL ARTIST OF UZBEKISTAN, WHO LEFT A
DEEP IMPACT IN THE FIELD OF ART AND CULTURE**

Aminjonova Odinaxon Husanjon Qizi

*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va
san'atshunoslik fakulteti Vokal san'ati an'anaviy xonandalik kafedrası
1-bosqich talabasi
yllvlyvov@gmail.com
+998908325838*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada – O'zbekiston xalq xofizi, O'zbekiston davlat filarmoniyasining xonandasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, bastakor sozanda xonanda, Fattohxon Mamadaliyevning ashula va katta ashulalarni bastalaganliklari o'ziga hos ijod yo'lini hamda uslubini yaratib, ko'plab shogirtlar chiqarganliklari ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'zi: *xofiz, ashula, katta ashula, bastakor, ijod, filarmoniya, xonanda*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается тот факт, что сочинение песен и больших песен солистом Народного хора Узбекистана, солистом Государственной филармонии Узбекистана, профессором Государственной консерватории Узбекистана, композитором и певцом Фаттоххоном Мамадалиевым создало свой уникальный творческий путь и стиль, а также воспитало множество учеников.*

Abstract: *This article highlights the fact that the composition of songs and large songs by Fatohkhon Mamadaliyev, the People's Choir of Uzbekistan, singer of the State Philharmonic of Uzbekistan, professor of the State Conservatory of Uzbekistan, composer and singer, has created his own unique creative path and style, and has produced many students.*

Kirish. *Insonning kamolotida ham, uning poklanishida asosiy mezonlardan biri mumtoz musiqa san'atidir. Shodon damlarda xam, boshga tashvish tushganda xam dilbar*

navoni tinglab orom topishimizning boisi aslida shu. O'zbek milliy va san'at yo'lining ildiziy tarixi yanada yuqori tomon o'sishi uchun o'z hissalarini qo'shgan inson deya ta'kidlasak bo'ladi. Endi ushbu maqolaning kirish qismini ustoz Fattohxon Mamadaliyevning hayotiy va ijodiy faoliyatlaridan boshlasak. Fattohxon Mamadaliyev - O'zbekiston xalq xofizi, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi o'qituvchisi-professor, professional sozanda xonanda va bastakor, maqomchilar ansanblining tashkilchisi va badiiy rahbari. O'zbek davlat filarmoniyasi xonandasi. Fattohxon Mamadaliyev 1923-yil 25-iyul Andijon⁴² viloyatining baliqchi tumanida ishchi oilasida dunyoga kelgan. Maktabda o'qib yurgan paytlari, musiqa o'qituvchisi Zokirjon To'rayev unga dutor sozini sovg'a qiladi. U musiqaga va san'atga mehr qo'ydi. Shuningdek, u taniqli skripkachi Mo'minjon Karimovdan tahsil olishdi. Namanganlik musiqiy asboblari ustasi Ro'zimatxon Isaboyev unga "Qo'shiqchi tanbur bilan kuylashni o'rganishi kerak" so'zlari bilan o'zining tanbur sozini sovg'a qildi. Ijod yo'lini bosib o'tar ekan, umri davomida ustozlarning maslahatiga rioya qilib yashadi. Ashula, katta ashula va maqom yo'llarini, ulug' ustozlardan o'rgandi. Umrzoq Polvon Saydali (Ro'zimatxon Isaboyev sozanda tanbur, g'ijjak, chang) cholg'u asboblari ustasi va pedagog. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Berkinboy Fayziyev, Abdulla Taraz shunidek, Jo'raxon Sultonov - xonanda bastakor O'zbekiston xalq hofizi, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Yunus Rajabiy⁴³ - bastakor, xonanda va sozanda (nay, tor) o'zbek musiqa merosini tarixiy ildizini yanada kengaytirgan. O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, buyuk xizmatlari uchun ordeni sohibi Buyuk sozanda va xonanda bastakor ustozlarning shogirti bo'lib bilim oldi. O'zining asarlarida mukammallikka erishish uchun ustozlarning ijodiy usulini barcha qirralarini o'zlashtirgan.

Fattohxon Mamadaliyev 1944 - yil Andijon viloyat turli teatrlarida sozanda va xonanda. Talabalik yillarida "Yo'ldosh Ohun Boboyev nomidagi Andijon davlat teatrida ishlagan. U maqomchi ichrochilarning 2-ansanblini tashkil qiladi va u tanilgach, Toshkent davlat Konservatoriyasiga ishga taklif etildi. Mamadaliyev Fattohxon-1984-yili bastakor, hofiz va pedagog, Toshkent davlat Konservatoriyasida dars bergan. Ilmiy uslubiy asarlar yaratgan hamda "Sharq o'zbek sozlarining sozlanishi" va "Aruz, zarb va musiqa mutanosibli" mavzularida o'nlab maqolalarni yozgan. Bir muncha vaqt mobaynida O'zbekiston Teleradiokompaniyasining maqomchilar ansanblida maslahatchi sifatida ishlagan.

1992-yildan Toshkent Davlat Konservatoriyasining ilmiy kengashi Fattohxon Mamadaliyevga - An'anaviy qo'shiqchilik kafedrasini professori ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. Teleradiokompaniyasi maqomchilar ansanblining maslahatchisi bo'lib, u O'zbekistonda ilk bor 7 qismli maqom "Miskin", 8 qismli maqom "Ushshoq", 4 qismli

⁴² Mahmudov Avazbek Andijon san'ati fidoiylari. To'ldirilgan 2-nashr 2018-yil 226-bet.

⁴³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005- yil. Ma'lumotlaridan qaraldi.

maqom “Nasurulloi” kabi maqomlarni yaratgan. Konservatoriya talabalari bilan esa 5 qismli maqom “Munojot”ni yaratgan, ushbu barcha maqomlar plastinkalarga yozib olingan, televideniya ko‘rsatuvlarida ko‘p marotaba eshitirilgan. Fattohxon Mamadaliyev 1985-1999-yillar u Toshkent davlat Konservatoriyada dars beradi va ijrochilik jamoalarining butun bir avlodiga tahsil bera olgan. Jumladan: “Hurriyat Isroilova”, “Nasiba Sattorova”, “Mashrab Ermatov”, “Erkin Ro‘zimatov” “Maryam Sattorova” “Maysara Imomova”, “Azamat Otajonov” va “Bobur Yo‘ldashev” lardir ko‘plab shogirtlari ustoz yo‘lidan borib xalqimizga beminnat xizmat ko‘rsatib kelishmoqda. Mamadaliyev Fattohxon-“Vosit Sadullaning-Ey tong yeli”, Hayitboy “Azimiyning-So‘rmasa ko‘ngul” “Haydar Yahyoyevning qalamiga mansub - Dehqonlarim» kabi qo‘shiqlarni ijro qilgan.

Fattohxon Mamadaliyevning ovozi tiniq, shirali, dartli ovoz ko‘lami va nafasi keng: ijrosiga kuy bilan sher uzviyligi ovoz-cholg‘u imkoniyatlarini mohirlik bilan namoyon etilishi xosdir⁴⁴. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan, Shashmaqom sho‘balari, ashula katta ashula, yalla, o‘zbek mumtoz ashula va cholg‘u turkumlari, bastakorlar asarlari -“Ol xabar”, “Ey dilbari janon”, “Buzruk 1-3”, “Sarahboru Navo” “Ey Sabo” va boshqa asarlar o‘rin olgan.

O‘zbek mumtoz va zamonaviy shoirlar g‘azallari zaminida 50 dan ortiq ashulalar “Dardu dilim”, “Do‘st bilan ulfat bilan”, “intizor” va boshqalar yaratgan, shuningdek shoira Nodiraning “Oqibat”, “Sog‘indim” Muqimiyning “Kim desun” Furqatning “Adashganman” singari g‘azallari Fattohxon Mamadaliyev tomonidan ijro etilgan. Fattohxon Mamadaliyev 1968-yili turli o‘quv yurtlaridan xar-xil tashkilotlardan iqtidorli yigit-qizlarni topib, Andijon shahridagi 2-madaniyat qoshida “Maqomchilar” ansanblini tashkil qildi va unga badiiy rahbar bo‘ldi. O‘zbekistonda 1972-yili havaskor sozanda-xonanda va raqossalarni uchun “Marhabo talantlar” Respublika tanlovda SSSR xalq artistlari “Mukarramma Turg‘unboyeva”, “Halima Nosirova”, “Saodat Qobulova” lar hakamlik qilgan. “Qashqarchai Mog‘ulchai Dugoh”, “Soqinomai Mog‘ulchai Dugoh” ni eng oliy-10 ball bilan baholashgan. Fattohxon Mamadaliyev so‘nggi davrdagi turkum asarlari “Munojot», “Miskin”, “Nasurulloi I-VI”, “Ushshoq” va boshqalarda o‘zbek musiqa merosining muayyan namunalarini nozik jilolar bilan sayqallashtirdi. Fattohxon Mamadaliyev 5 qismli “Savti Fattohxon” ashula turkumini bastalagan “Qadimgi Ushshoq”, Umrzoq Polvon “Ushhog‘-I”, “Zikri Ushshog‘-I” maqom yo‘llarini tiklagan.

Fattohxon Mamadaliyevning “Dardi dilim” va “Ey tong yeli” asarlarining tahlili.

Fattohxon Mamadaliyevning “Dardi dilim” asari- Ogahiy g‘azali bo‘lib XX asrda F.Mamadaliyev tomonidan ushbu g‘azal ashula hamda maqom yo‘llariga moslashtirildi. Usha yillarda F.Mamadaliyev ham xalqqa yetgazish maqsadi sifatida

⁴⁴ O‘ZME Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.

bastakorlik asarlarni ijro etgan. Dardi dilim (muhabbat,sog'inch,dilim-chechak,oy,tun) ma'nolarini ifodalaydi.

“Ey tong yeli” – Vosit Sa’dulla she’ri, Fattohxon Mamadaliyev musiqasi hamda ushbu asarning ilk ijrochisi. Qo’shiq yaratilgan davr 1970-1980-yillar oralig’i (eng yuksak davri). “Ey tong yeli” ushbu asar faqatgina qo’shiq emas, bu inson qalbining poklanishi umid va ruhiy uyg’onish ramzi. Fattohxon Mamadaliyev ushbu kuyni ijro etganda quyidagilarga e’tibor bergan:

- Tong – hayotning yangilanishi;
- Yel – dardni yuvuvchi kuch;
- Dard – insonni poklovchi sinov sifatida tasvirlanadi.

Tong va yelini (ya’ni tong shamoli,tong yeli – yangi kun,yangi umid, ruhiy uyg’onish) ma’nolarini anglatadi. Xalq orasida qo’shiq tinglovchilar tomonidan sevildi.Fattohxon Mamadaliyevning repertuarlarida san’atkor mavqeini mustahkamladi. Asar musiqiy jihatdan mukammal, badiiy jihatdan chuqur, ma’naviy jihatdan tinchlik va tasalli manbai hisoblanadi.

U ko’plab xorijiy mamlakatlarga ya’ni: Hindiston, Italy, Bolgariya, Malayziya, AQSH tashrif buyurgan. Taniqli bastakor qo’shiqchi,g’azalshunos va o’qituvchi Fattohxon Mamadaliyev vatanda va boshqa yurtlarda munosib xalq e’tirofiga ega bo’lgan.

Benazir ovoz sohibi F.Mamadaliyev og’ir xastalikdan so’ng 1999-yil 4-aprel kuni bu yorug’ olamdan ko’z yumdi. Uni davolagan shifokorlarning gapiga qaraganda u nafasining so’ngiga qadar she’rlar yozib hamda qo’shiqlar bastaladi. So’ngi bor “Xayr endi” qo’shig’ini kuylagan edi.

Xulosa. Fattohxon Mamadaliyev o’zining betakror istedodi ko’plab bastakorlik asarlarini yaratdi. Xalq qalbidan joy olib va shogrtlar chiqardi. Fidokorona mehnati va san’atga bo’lgan cheksiz muhabbati bilan O’zbekiston san’ati tarixida o’chmas iz qoldirdirgan ijodkordir. Fattohxon Mamadaliyev o’z asarlari, ilmiy faolyati va sahnadagi ijrosi orqali nafaqat milliy musiqamizni, balki xalq ruhiyatini ham yuksak darajaga ifoda etilgan. Mamadaliyevning “Ey tong yeli”, “Dardi dilim” kabi asarlari inson qalbining chuqur kechirmalari umid va muhabbat tuyg’ularini o’zida mujassam etgan. Fattohxon Mamadaliyev butun hayotini san’atga bag’ishlab yoshlarga ibrat, milliy san’atimiz uchun faxr ilm tugalmas manfaatidir. Shu bois uning nomi kuy va qo’shiqlari bugungi kunda xam avlodlar qalbida yangraydi, milliy madaniyatimizning abadiy merosiga aylangan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov Avazbek Andijon san'ati fidoiylari.To'ldirilgan 2-nashr 2018-yil 226-bet.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005- yil. Ma'lumotlaridan qaraldi.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.

